“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Fuqarosizlikni bartaraf etish: xorijiy mamlakatlarning ilg‘or qonunchilik tajribasi va O‘zbekiston uchun istiqbollar

Zarina ABDURASHIDOVA,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi
tayanch doktoranti
e-mail: abd.zarina.7550@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada Gruziya, Finlandiya, Belarus,Moldova va Qozog‘iston Respublikasida fuqarolik sohasida joriy etilgan samarali qonunchilik asoslari tahlil qilingan. Huquqni qo‘llash amaliyoti, normativ-huquqiy yutuqlar va ularning fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomiga ta’siri tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqot asosida O‘zbekistonning fuqarolik sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan strategik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. fuqarosizlik, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, apatrid, fuqarolik, fuqarolikni yo‘qotish, fuqarolikdan chiqish

Аннотация. В данной статье проанализированы эффективные законодательные основы, внедренные в Грузии, Финляндии, Республике Беларусь, Республике Молдова и Республике Казахстан в области гражданства. Исследованы правоприменительная практика, нормативно-правовые достижения и их влияние на правовой статус лиц без гражданства. На основе проведенного исследования разработаны стратегические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование законодательства Узбекистана в сфере гражданства и усиление гарантий защиты прав лиц без гражданства.

Ключевые слова. безгражданство, лицо без гражданства, апатрид, гражданство, утрата гражданства, выход из гражданства

Annotation. This article analyzes the practical legislative frameworks related to citizenship, implemented in Georgia, Finland, the Republic of Belarus, the Republic of Moldova, and the Republic of Kazakhstan. It examines law enforcement practices, regulatory and legal developments, and their impact on the legal status of stateless persons. Based on the research, strategic proposals and recommendations have been developed to enhance Uzbekistan’s citizenship legislation and strengthen guarantees for the protection of stateless persons’ rights.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. statelessness, stateless person, apatride, nationality, loss of citizenship, renunciation of citizenship.

Fuqarosizlik hech bir davlat tomonidan fuqaro deb sanalmaydigan shaxslarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan huquqiy anomaliya bo‘lib, bugungi kunda butun dunyo miqyosida millionlab insonlarning jiddiy aziyat chekishiga olib kelayotgan dolzarb muammo hisoblanadi. Shaxsning hech bir davlat himoyasiga ega bo‘lmasligi uning asosiy huquqlaridan, jumladan ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, uy-joyli bo‘lish, bandlik, ijtimoiy ta’minot va boshqa shu kabi huquqlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum etadi. Chunki, fuqarolik shaxs va davlat o‘rtasidagi muhim siyosiy-huquqiy aloqa bo‘lib, har ikki tomon uchun o‘zaro huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi munosabatlarni ifodalaydi. Xalqaro huquq har bir shaxsning fuqarolikka ega bo‘lishga haqli ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasida “Har bir inson fuqarolik huquqiga ega ekanligi, hech kim o‘zboshimchalik bilan fuqaroligidan yoki fuqaroligini o‘zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas”ligi mustahkamlangan bo‘lib, mazkur huquqlar bo‘yicha xalqaro standartlarni belgilab beradi.

Tadqiqot qator vositalar va manbalarga, xususan, milliy va xalqaro ma’lumotlar bazalari hamda ilmiy kutubxonalarga tayanadi. Mazkur manbalar ilmiy tadqiqot tahlilining asosini tashkil etuvchi birlamchi huquqiy hujjatlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalardan foydalanish imkonini beradi.

Ushbu maqola yuzasidan ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan qiyosiy-tahlil, induktiv, deduktiv, mantiqiylik, tizimli tahlil qilish singari huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Davlatlar fuqarolik to‘g‘risidagi o‘z qoidalarini belgilash vakolatiga ega bo‘lsalar-da, ular kamsitmaslik, o‘zboshimchalikning oldini olish, fuqarosizlikdan himoya qilish va gender tengligini ta’minlashni talab qiladigan xalqaro huquq doirasida harakat qilishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, har bir davlatda fuqarosizlik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi o‘ziga xos amaliyot va tajriba shakllangan bo‘lib, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar huquqlarini himoya qilish, fuqarosizlikni aniqlash, uni kamaytirish, bartaraf etish va oldini olishda mazkur xorijiy amaliyot va tajribani tadqiq etishni taqazo etadi. Shunga ko‘ra, tadqiqot davomida ayrim xorijiy davlatlarning fuqarosizlik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha muvaffaqiyatli amaliyoti va tajribasi tahlil qilinadi.

Gruziya. Gruziya xalqaro shartnomalarga qo‘shilishda izchil natijalar ko‘rsatib kelayotgan davlatlardan biri bo‘lib, xususan 2011-yilning dekabr oyida 1954-yildagi “Apatrid (fuqaroligi bo‘lmagan shaxs) maqomi to‘g‘risidagi” va 2014-yilning iyul oyida 1961-yildagi “Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi” konvensiyalarga qo‘shilgan. Shundan 1954-yilgi konvensiyaga hech

qanday sharh (ogovorka)siz, 1961-yilgi konvensiyaning 8-moddasiga esa sharh (ogovorka) bilan qo‘shilgan. Jumladan, sharh (ogovorka)da fuqarolikdan mahrum qilishga yo‘l qo‘yish uchun istisnolarni ko‘zda tutadi. 2012-yilda Fuqarosizlikni aniqlash tartibining qonunchilik bazasiga kiritilganligi mamlakatning fuqarosizlik masalasini hal qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gruziyada fuqarosizlikni aniqlash jarayoni nisbatan qulay tartibni nazarda tutib, unga ko‘ra ariza topshirish uchun to‘lov, qonuniy yashash talabi va vaqt chegarasi talab etilmaydi. Shuningdek, ariza Gruziya bo‘ylab bir necha joylarda topshirilishi mumkin. Bundan tashqari, 2024-yil boshidan boshlab fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni naturallashtirish muddati 10 yildan 5 yilga qisqartirildi. Jumladan, “Gruziya fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasiga ko‘ra, “Gruziya fuqaroligi maqomiga ega bo'lgan voyaga yetgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, agar u Gruziya fuqaroligini olish uchun ariza topshirilgan sanagacha oxirgi 5 yil davomida Gruziya maqomiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxs sifatida qonuniy asosda Gruziyada yashagan bo‘lsa va ushbu Qonunning 1-bandining “b” – “d” kichik bandlarida belgilangan talablarga javob bersa, odatiy tartibda Gruziya fuqaroligi beriladi.” [1]

Mazkur Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, Gruziya fuqaroligini tug‘ilganlik bo‘yicha olish holatlari sanab o‘tilgan bo‘lib, ular orasida quyidagi bandning mavjudligi e’tiborga loyiq jihat deb hisoblaymiz: “Gruziya hududida ekstrakorporal urug‘lantirish (surrogat onalik) yo‘li bilan tug‘ilgan shaxs, agar uning ota-onasidan birortasining fuqaroligi davlati ushbu shaxsni o‘z fuqarosi sifatida tan olmasa Gruziya fuqaroligini tug‘ilganlik bo‘yicha oladi”.

Bizningcha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan normalar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan yondashuvni o ‘zida namoyon etadi. Xususan, har bir insonning fuqarolik huquqiga ega bo‘lishi tamoyilini qo‘llab-quvvatlaydi, fuqaroligi bo‘lmagan bolalarning paydo bo‘lishining oldini olishga xizmat qiladi.

Finlandiya. Finlandiya fuqarosizlikni tartibga solish masalasida o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan davlat bo‘lib, 1954-yilgi “Apatrid (fuqaroligi bo‘lmagan shaxs) maqomi to‘g‘risidagi”, 1961-yilgi “Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi” va “Fuqarolik to‘g‘risidagi” Yevropa konvensiyalari, shuningdek fuqarolik huquqiga taalluqli bo‘lgan inson huquqlari bo‘yicha boshqa qator shartnomalarning ishtirokchisi hisoblanadi. Finlandiya fuqarosizlikning oldini olish bo‘yicha xalqaro standartlarga javob beradigan keng qamrovli milliy qonunchilik tizimiga ega. Finlandiyada tug‘ilgan, mamlakatda yashash joyidan qat’iy nazar, fuqaroligi bo‘lmagan bolalarga Finlandiya avtomatik ravishda fuqarolik beradi. Yashash talabi muddati 8 yil etib belgilangan. Finlandiya Fuqarolik Aktiga ko‘ra, fuqarolikni olish tug‘ilish va ota-onalarning fuqaroligi asosida ariza yoki deklaratsiya orqali amalga oshiriladi. Ariza asosida beriladigan fuqarolik talablari Fuqarolik Aktining 3-bobida, deklaratsiya orqali fuqarolik olish esa 4-bobida mustahkamlangan. Deklaratsiya tartibining o‘ziga xos jihati shuki, ariza berish tartibiga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

nisbatan yengilroq va tezroq bo‘lib, kamroq talablarni va qaror qabul qilishda kamroq ixtiyoriylikni o‘z ichiga oladi. Deklaratsiya asosida Finlandiya fuqaroligini olish tamoyili talab qilinadigan shartlarga javob beradigan shaxs Finlandiya fuqaroligiga ega bo‘lish huquqiga egaligidan iborat. Deklaratsiya tartibi masalan, Finlandiya bilan allaqachon mustahkam aloqaga ega deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan shaxslarga tegishlidir. Shuningdek, mazkur tartib orqali sobiq Finlandiya fuqarosi ham Finlandiya fuqaroligini olishi mumkin. Xususan, Fuqarolik Aktining 9-moddasiga muvofiq, Finlandiya fuqaroligini olmagan chet ellik shaxs deklaratsiya orqali Finlandiya fuqaroligini olishi mumkin, agar uning otasi yoki 5-moddaning 1-qismida qayd etilgan “Onalik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq onasi uning tug‘ilishi paytida Finlandiya fuqarosi bo‘lgan bo‘lsa va ushbu chet ellik shaxs:

1. Finlandiyada tug‘ilgan bo‘lib, otalik yoki onalik 18 yoshga to‘lgandan keyin yoki undan oldin nikoh tuzgandan keyin aniqlangan bo‘lsa; yoki

2. Finlandiyadan tashqarida tug‘ilgan bo‘lib, otalik yoki onalik aniqlangan bo‘lsa. [2]

Finlandiya Fuqarolik Aktining 1-bob 4-bo‘limida fuqarosizlikning oldini olish to‘g‘risidagi norma mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ushbu Qonunning fuqarolikni yo‘qotish va fuqarolikdan mahrum qilish to‘g‘risidagi qoidalari, agar ularni qo‘llash natijasida shaxs fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylansa, qo‘llanilmasligi belgilangan.

Finlandiya Fuqarolik Aktining 2-bob 12-bo‘limida fuqaroligi noma’lum shaxsga tegishli quyidagi norma belgilangan:

Finlandiyada topib olingan bola, agar u xorijiy davlat fuqarosi ekanligi aniqlanmagan bo‘lsa, Finlandiya fuqarosi hisoblanadi. Agar bola besh yoshga to‘lganidan keyingina xorijiy davlat fuqarosi deb tan olingan bo‘lsa, bola Finlandiya fuqaroligini saqlab qoladi.

Fuqaroligi noma’lum ota-onadan Finlandiyada tug‘ilgan bola, agar uning chet davlat fuqarosi ekanligi aniqlanmagan bo‘lsa, Finlandiya fuqarosi hisoblanadi. Xuddi shu qoida Finlandiyada fuqaroligi noma’lum bo‘lgan onadan nikohsiz tug‘ilgan bolaga ham tadbiq etiladi. Agar bola besh yoshga to‘lganidan keyingina chet davlat fuqarosi deb tan olinsa, bola Finlandiya fuqaroligini saqlab qoladi.

Bizning fikrimizcha, Finlandiya Fuqarolik Akti xalqaro standartlar talablari doirasida inson huquqlari tamoyillariga mos ravishda ishlab chiqilgan qonunchilik hujjati hisoblanadi. Xususan, fuqaroligi bo‘lmagan bolalarga avtomatik ravishda Finlandiya fuqaroligining berilishi ularning huquqsiz qolib ketishi oldining olinishi va huquqiy holatining muhofaza qilinishi imkonini beradi. Aktning 4-bobida nazarda tutilgan deklaratsiya tartibining joriy etilganligi fuqarolikka ega bo‘lish jarayonini soddalashtirib, fuqarosiz qolish xavfining kamaytirilishini ta’minlaydi. Aktning 1-bob 4-bo‘limida fuqarosizlikning oldini olish to‘g‘risidagi norma esa fuqarosizlik muammosiga yo‘l qo‘ymaslik uchun muhim kafolat sanaladi. Aktning 2-bob 12-bo‘limida mustahkamlangan fuqaroligi

noma’lum shaxsga tegishli norma esa bolalarning davlat tomonidan himoyalanganligini ko‘rsatadi.

Belarus Respublikasi. Belarus Respublikasi BMTning 1954 va 1961-yillardagi Fuqarosizlik to‘g‘risidagi konvensiyalariga qo‘shilishga va’da bergan va qo‘shilish yo‘lidagi taraqqiyotni davom ettirishga sodiq bo‘lgan davlat hisoblanadi.

“Belarus Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasiga asosan “Belarus Respublikasi hududida tug‘ilgan, ota-onasi (yolg‘iz ota yoki ona) u tug‘ilgan paytda Belarus Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari bo‘lgan shaxs bo‘lsa va ota-onasi fuqarosi hisoblangan davlat bolaga o‘z fuqaroligini bermasa, bola tug‘ilganlik bo‘yicha Belarus Respublikasi fuqaroligini oladi”.[3]

Bizning nazarimizda, Belarus Respublikasining mazkur amaliyoti bolani hech qanday davlatga mansub bo‘lmagan shaxs sifatida yashashidan himoya qiladi, bu esa o‘z navbatida fuqarosiz bolalar sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

Moldova. Moldova 1954-yilgi va 1961-yilgi konvensiyalarga a’zo davlat sanaladi. Mamlakatda 2023-yil noyabr oyida “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritilib, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning fuqarolikka ega bo‘lishida kafolatlar yanada yaxshilandi. Xususan, o‘zgartirish kuchga kirgunga qadar fuqaroligi bo‘lmagan bolaning fuqarolikka ega bo‘lishi ota-onasining maqomiga bog‘liq edi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra esa, hududda tug‘ilgan, boshqacha tarzda fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lishi mumkin bo‘lgan bolalar, agar ular fuqaroligi bo‘lmagan shaxs deb e’tirof etish shartlariga javob bersa, ariza berish orqali va fuqarosizlikni aniqlash tartibidan o‘tgandan so‘ng fuqarolikka ega bo‘lishlari mumkinligi kafolatlandi. Mazkur tartibning joriy etilganligi, o‘z navbatida, 1961-yildagi “Fuqarosizlikni kamaytirish to‘g‘risidagi”, 1989-yildagi Bola huquqlari to‘g‘risidagi, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va boshqa xalqaro hujjatlar qoidalariga muvofiqlashtirganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mamlakatda fuqarosizlikni aniqlash tartibi joriy etilganligi fuqarosizlikni tartibga solishdagi e’tiborga loyiq jihat sanaladi.

“Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasiga muvofiq fuqarolikdan chiqish bo‘yicha quyidagi norma belgilangan:

(1) Moldova Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ariza beruvchiga uning boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini yoki ushbu fuqarolikni olganligini tasdiqlovchi guvohnomani yoxud boshqa davlat fuqaroligini olish kafolatlarini taqdim etish sharti bilan ruxsat etiladi.

(2) Agar Moldova Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat berilgan shaxs, taqdim etilgan kafolatlarga qaramay, boshqa davlat fuqaroligini olmasa, ya’ni fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylansa, Moldova Respublikasi Prezidentining Moldova Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat berish to‘g‘risidagi farmoni ushbu shaxsga taalluqli qismida belgilangan tartibda o‘z kuchini

yo‘qotgan deb topiladi.[4]

Qonunning 37-moddasiga asosan fuqarolikdan chiqish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, uning “f” bandiga ko‘ra, boshqa davlat fuqaroligiga ega bo‘lish yoki bunday fuqarolikni olish faktini yoxud bunday fuqarolikni olish kafolatlarini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilishi lozim.

Bundan tashqari, Qonunning 6-bobida Moldova Respublikasi Fuqaroligi masalalari bo‘yicha qarorlar ustidan shikoyat qilish bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solingan. Xususan, 41-moddada Moldova Respublikasi Prezidentining farmonlari ustidan shikoyat qilish huquqi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq Moldova Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalari bo‘yicha farmonlari ustidan ular kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.[5] 42-moddada esa mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqi mustahkamlangan bo‘lib, unga muvofiq Moldova Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha arizalarni qabul qilishni rad etish, arizalarni ko‘rib chiqish va ushbu masalalar bo‘yicha qarorlarni ijro etish muddatlari, tartibini buzish, fuqarolik berishni rad etish, mansabdor shaxslarning boshqa xatti-harakatlari ustidan qonunda belgilangan tartibda sud instansiyalariga shikoyat qilinishi mumkin. [6]

Fikrimizcha, Moldova “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunning 22- va 37-moddalari shaxsning fuqaroliksiz qolish xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Qonunning 41- va 42-moddalari esa fuqarolik masalalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni sud tartibida qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini ta’minlaydi, davlat idoralarining ochiqligi va mas’uliyatini oshiradi, suiste’mollar va noqonuniy qarorlar qabul qilinishining oldini oladi, noqonuniy yoki adolatsiz qarorlarga nisbatan e’tiroz bildirish imkonini beruvchi fundamental huquqiy mexanizmni kafolatlaydi.

Qozog‘iston Respublikasi. Qozog‘iston 1954-yilgi va 1961-yilgi konvensiyalarga qo‘shilmagan. BMT Qochoqlar ishlari bo‘yicha Oliy komissarligining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi aynan Qozog‘istonning Olmaota shahrida joylashgan bo‘lib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston bo‘ylab tashkilot faoliyatini boshqaradi. 2020-yil sentabr oyida mamlakatda fuqarosizlik holatlarini aniqlashning milliy mexanizmi joriy etilgan. Biroq, “Qozog‘iston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni soddalashtirilgan naturallashtirish tartibi nazarda tutilmagan.

“Qozog‘iston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasi 3-, 5-1)-, 6-bandlariga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotishning quyidagi o‘ziga xos asoslari belgilangan:

3. Qozog‘iston Respublikasining davlatlararo shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha;

5-1). Qozog‘iston Respublikasi fuqaroligini olganidan keyin boshqa davlat fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanilgan

taqdirda;

6. Agar shaxsning Qozog‘iston Respublikasi fuqaroligini olishiga asos bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasi fuqarosi bilan tuzilgan nikoh sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa. [7]

Bizning nazarimizda, mazkur norma orqali Qozog‘iston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotishning yuqorida keltirib o‘tilgan asoslari xalqaro va inson huquqlari nuqtai nazaridan ijobiy jihatlarga ega bo‘lib, davlat xavfsizligi va fuqarolik tizimini himoya qilinishini ta’minlaydi.

Tahlil natijalariga asoslanib, fuqarosizlikning oldini olish, kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha O‘zbekiston qonunchiligini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. “Gruziya fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida nazarda tutilgan normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga joriy etish, xususan:

“O‘zbekiston hududida ekstrakorporal urug‘lantirish (surrogat onalik) yo‘li bilan tug‘ilgan shaxs, agar uning ota-onasidan birortasining fuqaroligi davlati ushbu shaxsni o‘z fuqarosi sifatida tan olmasa O‘zbekiston fuqaroligini tug‘ilganlik bo‘yicha oladi”.

2. Finlandiya Fuqarolik Aktining 1-bob 4-bo‘limida fuqarosizlikning oldini olish to‘g‘risidagi normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga joriy etish, xususan:

“Ushbu Qonunning fuqarolikdan chiqish to‘g‘risidagi qoidalari, agar ularni qo‘llash natijasida shaxs fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylansa, qo‘llanilmaydi”.

3. “Belarus Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida nazarda tutilgan normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga joriy etish, xususan:

“O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan, ota-onasi (yolg‘iz ota yoki ona) u tug‘ilgan paytda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari bo‘lgan shaxs bo‘lsa va ota-onasi fuqarosi hisoblangan davlat bolaga o‘z fuqaroligini bermasa, bola tug‘ilganlik bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi”.

4. Moldovaning “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasida nazarda tutilgan normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga joriy etish, xususan:

“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ariza beruvchiga uning boshqa davlat fuqaroligiga mansubligini yoki ushbu fuqarolikni olganligini tasdiqlovchi guvohnomani yoxud boshqa davlat fuqaroligini olish kafolatlarini taqdim etish sharti bilan ruxsat etiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat berilgan shaxs, taqdim etilgan kafolatlarga qaramay, boshqa davlat fuqaroligini olmasa, ya’ni fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga aylansa,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat berish to‘g‘risidagi farmoni ushbu shaxsga taalluqli qismida belgilangan tartibda o‘z kuchini yo‘qotgan deb topiladi.”

5. Moldovaning “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunining 37-moddasi “f” bandida nazarda tutilgan normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunining O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish to‘g‘risidagi iltimosnomaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxat keltirilgan 39-modda 1-qismiga 5-band kiritish, xususan:

“boshqa davlat fuqaroligiga ega bo‘lish yoki bunday fuqarolikni olish faktini yoxud bunday fuqarolikni olish kafolatlarini tasdiqlovchi dalillar”.

6. Moldovaning “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunining 6-bobida nazarda tutilgan normani “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga 10-bob va unga 50-51-moddalar kirtish, xususan:

“10-bob. Fuqarolik masalalari bo‘yicha qarorlar ustidan shikoyat qilish

50-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari ustidan shikoyat qilish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalari bo‘yicha farmonlari ustidan ular kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

51-modda. Mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha arizalarni qabul qilishni rad etish, arizalarni ko‘rib chiqish va ushbu masalalar bo‘yicha qarorlarni ijro etish muddatlari, tartibini buzish, fuqarolik berishni rad etish, mansabdor shaxslarning boshqa xatti-harakatlari ustidan qonunda belgilangan tartibda sud instansiyalariga shikoyat qilinishi mumkin.

7. “Qozog‘iston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasi 3-, 5-1)-, 6-bandlarida nazarda tutilgan fuqarolikni yo‘qotish asoslarini “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasiga “j”, “z”, “i” bandlarini qo‘shish, xususan:

j) O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha;

z) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olganidan keyin boshqa davlat fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanilgan taqdirda;

i) Agar shaxsning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishiga asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan tuzilgan nikoh sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa.”

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Legislative Herald of Georgia (2014) Organic Law of Georgia on Georgian Citizenship, No. 2319-II, 30 April. Available at: https://matsne.gov.ge/ka/document/view/2342552?publication=10 (Accessed: [22.03.2025]).

2. Legislative Herald of Finland (2003) Finnish Citizenship Act, No. 359, 1 June. Available at: https://finlex.fi/sv/lagstiftning/2003/359 (Accessed: [22.03.2025]).

3. Закон “О гражданстве Республики Беларусь”, 05.01.2023 у., №136-З // Законодательство стран СНГ, 24.03.2025 г., https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=146782

4. Национальная база данных Республики Молдова (2000). Закон о гражданстве Республики Молдова № 1024 от 2 июня. Доступно по ссылке: https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=143988&lang=ru# (дата обращения: 24.03.2025).

5. O‘sha yerda.

6. O‘sha yerda.

7. Национальная база данных Республики Казахстан (1991). Закон о гражданстве Республики Казахстан № 1017-XII от 20 декабря. Доступно по ссылке: https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z910004800_(дата обращения: 24.03.2025).